



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti yo'nalishi
Tayanch doktorant Xusniddinova Gulnoza

ISHSIZLIK DARAJASI ORTISHINING JINOYATCHILIK AVJ OLIISHIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ishsizlik darajasining ortib borishi oqibatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammo jinoyatchilik ko'payishiga ta'siri yoritilib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Ishsizlik, jinoyatchilik, jinoyat, depressiya, bandlik, demografik holat, mehnat resurslari, xarajatlar

KIRISH

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik ortib borayotganligini bir qancha sabablarini keltirishimiz mumkin. Bular: oilaviy muhit, ta'lim-tarbiya, atrof-muhit va eng katta sabab bo'lmish iqtisodiy omil bu ishsizlikdir. Jinoyatchilik sodir etilishining asosiy sababi moddiy ehtiyojlarning qondirilmaligi, ishsizlik, oylik maoshning kamligidir.

Ishsizlik – ijtimoiy-iqtisodiy voqea hisoblanib, iqtisodiy faol, mehnat qilishga layoqatli va mehnat qilishni hohlaydigan aholi muayyan qismining tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishda ish bilan band bo'lmasligidir.

Xalqaro mehnat tashkilotining qoidalariga muvofiq, ishsiz- hisobot davrida ishga ega bo'lmagan, ishlashni xohlaydigan ish qidirgan shaxs hisoblanadi.¹

Dunyo tajribasidan malumki ishsizlik ortib borgani sari uning oqibatida o'g'irlik, talon-taroj, korrupsion jinoyatlar, qotillik, tovlamachilik, firibgarlik kabi jinoyatlar avj olishiga olib keladi. Tabiiyki ishsizlikdarajasi ko'payib borsa ishga muhtoj qatlamlarning moddiy ehtiyojlari qoplanmay qolib, ular pul topishning boshqa yo'llarini qidira boshlaydi. Oxir oqibat jinoyatchilikga qo'l urish holatlari ko'plab kuzatilmoqda.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda yoshlar o'rtasida asosan O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksining 169-moddasida ko'rsatilgan o'g'irlik jinoyatlari sodir etish ko'plab uchrayapti. Yana shu moddada ko'rsatilgan talonchilik jinoyatlari, ya'ni ko'cha-ko'yda fuqarolarning

¹ Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: Дарслик – Т.: IQTISODIYOT, 2018- 4046



qimmatbaho buyumlarini, taqinchoqlarini talonchilik yo'li bilan olib ketish kabi jinoyatlar ko'plab uchrayapti. Bu jinoyatlarning eng ko'p uchrashiga sabab, mana shu yoshlarning o'rtasida hozirgi paytda bo'sh yurganlar, o'qishga bormasdan, o'qishni bitirgandan keyin ish topolmasdan yoki oliy yoki boshqa o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirish uchun imkoni bo'lmagan shaxslar, ko'proq mana shunday bekorchi yurgan yoshlar tomonidan jinoyatlar sodir etilyapti². Ushbu fikrga qo'shilgan holda avvalambor ishsizlikni kelib chiqish sabablarini ko'rishimiz maqsadga muvofiq. Dunyo mamlakatlari tajribasidan ma'lumki ishsizlik eng ko'p uchraydigan hududlarda aholi salmog'ining ko'pligi va ushbu hududlarda kasb malakasi yuqori bo'lmagan aholi tarkib topgan.

Barchaga ma'lumki covid-19 pandemiyasi tarqalishi natijasida nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyoda ishsizlik darajasi ko'tarilib ketti. Bu esa o'z navbatida jinoyatchilikni ham keskin ortishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan jinoyatlar soni hududlar kesimida (2021- yil yanvar-iyun, birlikda)³

1-jadval

Qoraqalpog'iston Res	1368	Samarqand	2853
Andijon	3176	Sirdaryo	1304
Buxoro	2173	Toshkent	5041
Jizzax	1193	Surxandaryo	1924
Qashqadaryo	2297	Xorazm	992
Navoiy	1160	Farg'ona	8535
namangan	2890	Toshkent sh.	10263


Ro'yxatga olingan jinoyatlar soni hududlar kesimida tahlil qilinganda, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida eng ko'p ro'yxatga olingan jinoyatlar soni Toshkent shahrida (10263

² <https://www.amerikaovozi.com> saytida chop etilgan "Yoshlar orasida jinoyatchilik ko'lami ortib bormoqda" nomli maqolasidagi advokat Baxtiyor Shohnazarovning fikrlari

³ Adliya vazirligining rasmiy sayti ma'lumotlaridan



ta jinoyat), Farg‘ona (8535 ta jinoyat), Toshkent (5041 ta jinoyat) va Andijon (3176 ta jinoyat) viloyatlarida, eng kam ro‘yxatga olingan jinoyatlar Jizzax (1193 ta jinoyat), Navoiy (1160 ta jinoyat) va Xorazm (992 ta jinoyat) viloyatlarida kuzatilgan.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan jinoyatlar soni hududlar kesimida (2021- yil yanvar-iyun, birlikda)

Diogrammadagi ma'lumotlarga nazar solsak, jinoyat sodir etganlarning eng ko‘p qismi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelgan. Undan keying o‘rinlarda Farg‘ona, Toshkent, Andijon, Samarqand viloyatlariga to‘g‘ri keladi. Ushbu hudularda aholisi soni ko‘pligi jinoyatlar sonining ko‘pligiga tasir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-son qaroriga muvofiq “Ishga marhamat” monomarkazlari faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, ular uchun kasb-hunar, xorijiy tillar hamda tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish bo‘yicha o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish maqsadida Toshkent shahridagi “Ishga marhamat” monomarkazi tuzilmasida 10 ta shtat birligidan iborat bo‘lgan “Ishga marhamat” monomarkazlari faoliyatini muvofiqlashtirish va o‘quv-metodik ta‘minlash boshqarmasi tashkil etildi.



Ushbu islohotlar aholi bandligini ta'minlash, yoshlarning ishsizligini oldini olishni maqsad qilgan bo'lib, aholi bandligini taminlash asnosida huquqbuzarlik, jinoyat korrupsiyani oldini olishga ham qaratilgan muhim qaror loyihalardan biridir.

Monomarkazlar ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi davlat muassasasi hisoblanadi.⁴ Ushbu monomarkazlar ishsiz yoshlarni ishga joylashtirishga, ish o'rinlari bilan ta'minlab, ishchi kuchini munosib taqsimlash vazifalarini bajaradi.

Ana shunday monomarkazlar yaratilib, aholi munosib ish bilan ta'minlansa, kasb hunarga o'qitilib malaka darajalari oshirilsa o'ylaymanki ishsizlik muommolarini oldi olingan bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki ishsizlikning yuqori sur'atlar bilan o'sishi, avj olishi juda ham katta muommolarga sabab bo'la olar ekan uni kamaytirishga urinish esa ko'pgina muommolarni oldini olishga yordam beribgina qolmay balki aholi turmush darajasini o'sishiga va uning ortidan iqtisodiy farovonlikga ham erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти: Дарлик – Т.: IQTISODIYOT, 2018. –628 б.
2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-apreldagi 183-son qarori

⁴ <https://lex.uz/>